

Farg'ona viloyatida Turkiston oq laylagiga oid kadastr ma'lumotlari to'plandi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti "Kamyob hayvonlar hisobi va kadastro" laboratoriysi xodimlari Farg'ona viloyatida rejalashtirilgan kadastr tadqiqotlarini o'tkazdilar.

Ekspeditsianing asosiy maqsadi - **Ciconia ciconia asiatica** - O'rta Osiyo kenja turi o'zining Yevropa kenja turidan kattaroq o'lchami bilan ajralib turadigan Turkiston oq laylagining - Farg'ona vodiysida uyalash hisobini olib borish.

Ayni bahor kunlari oq laylaklarda ko'payish mavsumi boshlangan. Qushlar ko'plab yillar mobaynida o'zlari foydalangan mavjud uyalarini ta'mirlashmoqda va yangilarini qurishmoqda.



Laylaklar - odamlar bilan noyob hayvonlarning nisbatan muvaffaqiyatli birga yashashining juda kam uchraydigan namunasidir: ular uyalarini faqat yovvoyi tabiatda emas, balki antropogen landshaftlarda - elektr uzatish tarmoqlarida, suv minoralarida ham qurishni afzal ko'rishadi, hamda ular sayoz suvlarda, Farg'ona viloyatidagi katta hajmdagi inson tomonidan bunyod etilgan; sholi dalalarida, baliqchilik suv havzalarida, sug'orish kanallarida ozuqa izlab topishadi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **so'nggi 5 yil mobaynida Farg'ona vodiysida ushbu qushlarning soni ko'payib bormoqda**.

Shuningdek, Yozyovon qumli massivi hududida ikki galada oziqlanadigan **1000 dan ortiq qushlarni** sanoqdan o'tkazildi. "Farg'ona ovchilik va baliqchilik jamiyati" qo'riqchilarining ma'lumotlariga ko'ra, qushlar bu hududda har yili sentyabrdan may oyining o'rtalariga qadar kuzatilib, ularning soni **1500 dan 2000 gachani** tashkil etadi. **2020-yil sentyabr oyi boshida** Farg'ona viloyatining Beshariq tumani Sariqamish ko'li atrofida **400 ga yaqin qushlarning mavsumiy galasini** qayd etilgan. Ushbu qisqa ekspeditsiya davomida mintaqada 200 dan ortiq oq laylak uyalari ham topildi. Shuni ta'kidlash kerakki, **ushbu noyob tipdagи turning dunyodagi populyatsiyasining katta qismi** O'zbekistonda uyalaydi va ularning **95 foizi Farg'ona vodiysi** hududiga to'g'ri keladi.



Oq laylak 51 turdagи boshqa qushlar bilan bir qatorda (mamlakatimizda qushlarning 450 dan ortiq turlari mavjud) O'zbekiston Respublikasining **Qizil kitobiga** kiritilgan.